



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA O'QISH DARSLARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Uzaqbayeva Gulayim Bahadir qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI magistratura bo'limi
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
2-boshqish magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19951145>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 28-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 30-aprel 2026 yil

KEYWORDS

nutqiy kompetensiya, o'qish darsi, Milliy o'quv dasturi, PIRLS, didaktik imkoniyat, interfaol metodlar, integratsiya, ijodiy tafakkur.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning mazmun-mohiyati, Milliy o'quv dasturi va Davlat ta'lim standartlari asosidagi talablar hamda o'qish darslarida qo'llaniladigan zamonaviy didaktik imkoniyatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilar nutqidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etishda interfaol metodlarning samaradorligi yoritilgan.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, xususan, boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Zero, shaxsning intellektual salohiyati va muloqot madaniyati poydevori aynan boshlang'ich sinflarda qo'yiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslari o'quvchilarga nafaqat o'qish va yozishni o'rgatadi, balki ularda erkin, kreativ va mantiqiy fikrlash hamda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantiradi.

Bugungi kunning dolzarb vazifasi o'quvchini oddiy "axborot qabul qiluvchi"dan "faol muloqotchi"ga aylantirishdir. Bu esa ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni talab etadi.

Nutqiy kompetensiya – bu o'quvchining o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, ravon va vaziyatga mos holda bayon eta olish qobiliyatidir. Milliy o'quv dasturiga ko'ra, ushbu kompetensiya to'rtta asosiy ustunni o'z ichiga oladi:

1. **Og'zaki nutq:** Talaffuz me'yorlariga rioya qilish, muloqot odobi.
2. **Yozma nutq:** Imlo qoidalari va ijodiy fikr bayoni.
3. **O'qish va tushunish:** Matnning ichki mohiyatini anglash.
4. **Tinglab tushunish:** Axborotni qabul qilish va qayta ishlash.

O'zbekistonning PIRLS va PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etishi boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilarda matn bilan ishlash va undan xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Maqolada 1-4-sinflar kesimida nutqiy kompetensiyaning rivojlanish bosqichlarini qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

1-sinfda asosiy urg'u tovushlar talaffuzi, sodda gaplar tuzish va rasmlar asosida hikoya qilishga qaratiladi. O'quvchi bir daqiqada 20-25 ta so'z o'qishi va 15-20 so'zdan iborat diktant yoza olishi kutiladi.

2-3-sinflarda ko'nikmalar murakkablashib, o'quvchi matndagi ma'nodosh va zid ma'noli so'zlardan foydalanishni, she'rlarni ifodali aytishni va ertaklarni obrazga kirib so'zlashni o'rganadi.

4-sinfga kelib o'quvchi to'laqonli nutq sohibi sifatida namoyon bo'ladi. U 65-70 so'zli diktant yozish, matnga sarlavha tanlash, muammoli savollarga javob berish va o'z qarashlarini odob bilan himoya qilish darajasiga yetadi.

O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o'stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchining fikrlashini o'stirish ko'zda tutiladi.

O'qish darslari oldiga qo'yilgan tarbiyaviy vazifaning muvaffaqiyatli hal etilishi darsda badiiy asar matni ustida ishlash bilangina bog'liq bo'lib qolmay, balki bolani qurshab olgan hayot, tabiatdagi o'zgarishlar, ekologik vaziyat, ijtimoiy foydali mehnat bilan ham o'zaro bog'liq bo'lishi lozim. O'quvchini o'qishga o'rgatishda hayot tajribalariga tayanib ish ko'riladi. O'qish darslari bolalarda go'zallikka muhabbat uyg'otadigan, poklik tuyg'ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o'tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o'stiradigan musiqa va tasviriy san'at fanlari bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak. O'qish, musiqa va tasviriy san'at darslarini o'zaro bog'lab uyushtirish bolalarda san'at asarlarini to'g'ri tushunish va qadrlash ko'nikmalarini o'stiradi, o'quvchining shaxs sifatida ma'naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflarida o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish;

o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'qish (1-4-sinf) fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

o'quvchilarning og'zaki nutqi adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

yo'zma nutqda yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda dastlab tanish, keyin notanish matn ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Shuningdek, miqdoriy ko'rsatkich – o'qish tezligi, ongli va ravon o'qish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi ham belgilanadi.

Bolaning matn mazmunini to'liq o'qib olishi, qayta hikoyalashi, shuningdek, o'zgarlar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi.

Mazkur dasturdan o'rin olgan vatan mavzusidagi asarlar o'quvchilarni mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy hayoti va xalqimizning bunyodkorlik yo'lidagi olib borayotgan ishlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

1-sinfning o'quv yili oxirida bolalar Vatan va uning tabiati, insoniy qadriyatlari haqida kichik-kichik asarlarni o'qiydilar.

2-sinfda shakl va mazmun jihatdan uncha murakkab bo'lmagan Vatan, ona tabiat, istiqlol, kishilarning hayoti va mehnati, axloqiy munosabatlar haqidagi asarlar bilan tanishadilar.

3- va 4-sinflar o'qish dasturida mavzular ko'lami ancha kengayadi.

Bu sinflarda o'qish darslarining kattagina qismi asarni o'qish va matn ustida ishlashga qaratiladi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslari o'quvchi nutqini boyitish va muloqot madaniyatini shakllantirishda asosiy poydevor hisoblanadi. Ushbu darslarning didaktik imkoniyatlarini quyidagi yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

1. Lug'at boyligini oshirish (Leksik imkoniyat)

Matn ustida ishlash orqali o'quvchi yangi so'zlar, iboralar va maqollarni o'rganadi. Notanish so'zlarning ma'nosini tushuntirish va ularni o'z nutqida qo'llashga o'rgatish orqali passiv lug'at aktiv shaklga o'tadi.

2. Bog'lanishli nutqni o'stirish (Kommunikativ imkoniyat)

Matn mazmunini so'zlab berish (qisqartirib, kengaytirib yoki ijodiy), savol-javoblar va personajlar tahlili o'quvchida o'z fikrini mantiqiy tartibda bayon qilish ko'nikmasini hosil qiladi.

3. Ifodali o'qish va talaffuz madaniyati (Fonetika)

To'g'ri talaffuz, urg'u, intonatsiya va pauzalarga rioya qilib o'qish o'quvchining og'zaki nutqi ravon va ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi.

4. Matn turlari bilan ishlash (Stilistik imkoniyat)

Ertak, hikoya, she'r va masallarning o'ziga xos uslubini o'rganish orqali bola turli vaziyatlarda nutqning xilma-xil shakllaridan foydalanishni o'rganadi.

5. Tanqidiy va ijodiy fikrlash (Kognitiv imkoniyat)

Matndagi voqealarga munosabat bildirish, qahramonlarni baholash va voqealar rivojini taxmin qilish o'quvchini mustaqil mulohaza yuritishga va dalillangan nutq tuzishga undaydi.

O'qish darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish – o'quvchining shaxs sifatida shakllanishi va kelgusi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatga erishishi uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Nutqiy kompetensiya – bu shunchaki akademik bilim emas, balki **shaxsiy va ijtimoiy hayot kalitidir**. O'qish darslarida didaktik imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish o'quvchini "kitobxon" darajasidan "chuqur mulohaza yurituvchi ijodkor" darajasiga ko'taradi. Bu esa o'z navbatida barkamol avlodni shakllantirishning eng samarali yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy o'quv dasturi.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. Toshkent, 2017.
3. Matchonov S. "Maktabda adabiy ta'limni takomillashtirish metodikasi". Monografiya, 2015.
4. Yo'ldoshev J., Hasanov S. "Pedagogik texnologiyalar". Toshkent, 2009.

5. Qosimova K., Matchonova G., Sidiqova M., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Boshlang'ich sinf o'qish kitobi metodikasi. Toshkent, 2018.
6. To'xliyev B., Shamsiyeva M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2016.
7. G'afforova T., Qodirova M., Abduazizova N. Boshlang'ich sinf o'qish darslari. Toshkent, 2020.

